

**“Mahalla yettiligi” a’zolari o’rtasida yoshlar bilan ishlashga qaratilgan hamkorlik mexanizmini amalga oshirish bo’yicha “YO‘L XARITA”sida belgilangan vazifalar ijrosi to’g’risida
MA’LUMOTNOMA**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 4-avgustdagi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sport vazirligi, O‘zbekiston bolalar tashkiloti, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining qo‘shma qarori ilovasi bilan tasdiqlangan “Mahalla yettiligi” a’zolari va ta’lim muassasalari o’rtasida yoshlar bilan ishlashga qaratilgan hamkorlik mexanizmini amalga oshirish bo’yicha “YO‘L XARITA” ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Nazorat Rejada bir qator vazifalar belgilangan.

Shu munosabat bilan 2025-yil 8-sentabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Iqtisodiyot” fakulteti tyutori Sh.X.Bektemirov boshchiligida IQT-125 guruh talabalari uchun ekskursiya tashkil etildi. Tadbir doirasida talabalar Samarqand shahridagi Qatag‘on qurbonlari muzeyiga tashrif buyurib, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Sadridin Ayniy, Saidahmadxo‘ja Siddiqiy Ajziy, Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li, Saidrizo Alizoda kabi el-yurt ozodligi va millat ma’rifati yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan ma’rifatparvar ajdodlarimizning hayoti hamda faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘ldilar.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30220>

2025-yil 12-sentabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori O. Murtazayev hamda fakultet talabalari Samarqand viloyati Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyiga tashrif buyurishdi. Ushbu tashrifdan ko‘zlangan maqsad – xalqimiz tarixida chuqur iz qoldirgan qatag‘on yillarida qurbon bo‘lgan ajdodlarimiz xotirasini yod etish, yoshlarda tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tuyg‘usini yanada mustahkamlashdan iboratdir.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30316>

2025-yil 15-sentabr kuni Samarqand shahar Madadkor MFYda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida aholi o’rtasida kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash va ijtimoiy faollikni oshirish maqsadida uslubiy-amaliy tadbir tashkil etildi. Tadbirda filial Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo’yicha direktorning birinchi o‘rinbosari, mahalla yettiligi, faollar hamda yoshlar ishtirok etdilar. Suhbat davomida kam ta’minlangan oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish, bandlikni oshirishga qaratilgan o‘quv-mashg‘ulotlar tashkil etish va psixologik ko‘mak berish masalalari muhokama qilinib, tegishli tavsiyalar berildi. Ushbu hamkorlik mahalla va ta’lim muassasalari o’rtasida ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi <https://t.me/TDIUSamfilial/30363>

2025-yil 23-sentyabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talaba-o'quvchi yoshlarning qiziqishlarini o'rganish maqsadida filial yoshlar yetakchisi va psixologlari (birinchi prorektor, yoshlar yetakchisi, direktor o'rinbosarlari) tomonidan so'rovnoma ishlab chiqilib, so'rovnomani talaba-o'quvchilar o'rtasida belgilangan tartib asosida o'tkaziildi. https://t.me/TDIU_SF_Yoshlari/6561

TDIU Samarqand filialining Yoshlar ittifoqi jamoasi hamda Eko-volontyor talabalar mahalla va filial hududini chiqindilardan holi etish maqsadida birlashdilar. Ushbu tashabbus orqali talabalar atrof-muhitni toza saqlashning muhimligini targ'ib qildilar. Talabalar tashabbusi nafaqat hududni obod qilish, balki ekologik madaniyatni oshirish, yoshlarda mas'uliyat va birdamlik tuyg'usini kuchaytirishga ham xizmat qilad

<https://t.me/TDIUSamfilial/30647>

2025-yil 24-sentyabr kuni yangi o'quv yilidan boshlab, talaba-yoshlarning qiziqishlari, ehtiyojlari va duch kelayotgan muammolarini chuqur o'rganish maqsadida psixolog va sotsiologlar tomonidan so'rovnomalar tashkil etildi. O'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, talabalar orasida o'qish jarayoniga, bo'sh vaqtni samarali o'tkazishga hamda shaxsiy rivojlanishga oid fikrlar tahlil qilindi. Psixologlar ushbu ma'lumotlar asosida aniq muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Shuningdek, "mahalla yettiligi" bilan hamkorlikda talabalar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar rejalashtirilmoqda.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30681>

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari**



X.I.Turdibekov

“Mahalla yettiligi” a’zolari o’rtasida yoshlar bilan ishlashga qaratilgan hamkorlik mexanizmini amalga oshirish bo’yicha “YO’L XARITA”sida belgilangan vazifalar ijrosi bo’yicha fotolavhalar

